

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING UNUTILMAS IFTIXORLARI

Hamrayeva Vasila

Mirzo Ulug‘bek Nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy Fanlar Fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

***Annotatsiya:** O‘zbekiston Milliy Universiteti respublikamizdagi eng yuqori o‘rinda turuvchi universitet. Buning yaqqol isboti o‘laroq, nafaqat O‘rtaosiyo, qit‘amizdagi birqancha ilm ahlini bizning universitetimizda tqasil olayotganlarini yuksak faxr bilan e‘tirof etishimiz mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** Universitet, asperantura, elektron, radiotelfond, doktorantura, geologiya, tuproqshunoslik, fizika;*

Barchamizga ma‘lumki O‘zbekiston Milliy Universiteti nihoyatda boy tarixga ega Ushbu oliy o‘quv yurti 1918-yil Turkiston Davlat Universiteti nomi bilan poytaxtimiz Toshkent shahrida faoliyatini boshlagan. Universitet nomining ham bir-nechabor o‘zgarishida ham o‘ziga xos ma‘no-mazmun mavjud. 1923-yildan boshlab universitetimizning nomi O‘rta Osiyo Davlat Universiteti (SAGU) nomi bilan o‘z faoliyatini davom ettirgan T‘alim dargohiga bunday maqomni berilishidan ma‘lumki, shu davridayoq universitetning darajasi baland bo‘lgan. 1960-yilga kelib O‘rta Osiyo Davlat Universiteti Toshkent Davlat Universiteti (TASHDU) nomiga o‘zgartirildi. Mustaqillikka erishganimizdan 4 yil o‘tgach, 1995-yilda universitetimizga Mirzo Ulug‘bek nomi berildi. Yana 5 yil o‘tgach esa hurmatli birinchi prizidentimiz marhum Islom Abdug‘aniyevich Karimovning farmoniga muvofiq 2000-yil 28-yanvardan boshlab universitetimizga Milliy Universitet maqomi berildi.

Universitetimizning faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, 1920-yilning o'rtalariga kelgach universitetda ilmiy tekshirish ishlariga alohida e'tibor berildi 1929-yilga kelib esa asperantura bosqichhi ham o'z faoliyatini boshladi. Ta'lim dargohining olimlari tomonidan xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlar qilindi. Isbot tariqasida 1928-yil universitet olimi PB. Grabovskiy, IF. Belyanskiy bilan birgalikda elektron nur yordamida harakatdagi tasvirni bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qiladigan "radiotelfond" yaratdilar. 1928-yilda universitet fakultetlari asosida mustaqil tarmoq universitetlar, jumladan O'rta Osiyo Paxtachilik Insituti, O'rta Osiyo Tibbiyot Insituti, O'rta Osiyo Moliya Iqtisodiyot Insituti (hozirgi Toshkent Iqtisodiyot Universiteti), O'rta Osiyo Industrial Insituti (hozirgi Toshkent Texnika Universiteti), O'rta Osiyo Ipakchilik Insituti hamda ilmiy tekshirish muassasalari tashkil topdi. 1931-yilga kelib esa universitetda biologiya, texnika, fizika, matematika ishchi fakultetlari ishlagan 1935- yilda esa fakultetlar soni yanada ko'paydi. Endi Tarix, geologiya, Tuproqshunoslik va Geografiya fakultetlari ham o'z faoliyatini boshladi. Yillar davomida talabalarni ortib borishi tufayli 1938-yilda universitetning sirtqi bo'limi ham tashkil etildi. 2-jaxon urushi (1939-1945) dan oldingi davrda universitet pedagoglar tarkibi uni tamomlagan T N.Qoriniyoziy, T Z.Zohidov, T A.Sarimsoqov, O S.Sodiqov va boshqa milliy yosh kadrlar tufayli kengaydi. Taqdirning taqa'zosi bilan 1941-yilning noyabir oyida O'zDU (hozirgi Samarqand Universiteti) SAGU ming tarkibiga qo'shilib ketdi. Oradan 4 yil o'tgach esa yana ajralib chiqdi. Bu orada esa 1943-yilning aprelida asperantura bosqichiga talabalarni qabul qilish sini kengaydi, bundan tashqari doktorantura bosqichi ham ochildi. Keyingi yillarda universitet faoliyati yanada kengaydi. O'quv jarayonlari takomillashtirildi. Ilmiy tadqiqotlar yuksaldi Mustaqillik davri ya'ni 1991-yilga kelib Sharqshunoslik va Yuridik fakultetlari negizida Toshkent Sharqshunoslik Insituti va Toshkent Yuridik Insituti tashkil topdi

Universitetda tahsil olgan va ta'lim dargohini nufuzini oshirishda ilmiy ishlari bilan o'z hissalarini qo'shgan bir qancha olimlarimiz bir. Ulardan biri T A.Sarimsoqov. U 1915-yil 10-sentiyabrda Andijon viloyatining Shahrixon shahrida

tug‘ilgan. 1936-yilda O‘rta Osiyo Davlat Universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti) ming Fizika Matematika fakultetini tamomlagan. Iqtidorli olim 24 yoshidayoq Fizika Matematika fanlari nomzodibo‘ldi. Oradan ko‘p o‘tmay 27 yoshida esa Fizika Matematika Fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. Uning bu qadar ilmga chanqoqligi va izlanishlari mansab pillag‘oyalaridan asta sekin ko‘tarib 28 yoshida Universitet rektori lavozimiga keldi. Qahramonimiz o‘z faoliyatini yanada zo‘r shijoat bilan olib borishi natijasida 31 yoshida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining prezidenti lavozimini egalladi. T A.Sarimsoqovdan 200 dan ortiq o‘ta muhim ilmiy ishlar va ko‘plab ilmiy-ommabop maqolalar me’ros bo‘lib qolgan.

Yana bir taniqli olim, universitetimizni faxri Jo‘rayev To‘xtamurod Jo‘rayevich 1934-yil 25-oktiyabrda Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanidagi SHo‘ralisoy qishlog‘ida tavallud topgan. U 1953-yilda O‘rta Osiyo Davlat Universiteti (O‘zMU) ming Fizika Matematika fakulteti talabasi bo‘ldi. Uni 1958-yilda matematika analiz mutaxassisligi bo‘yicha imtiyozli diplom bilan tamomladi. Olim ilmni tashlab qo‘ymadi va buning natijasi o‘laroq 1962-yilda nomzodlik, 1972-yilda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. 1979-yilda O‘zR FA muhbiri a‘zosi , 1989-yilda esa haqiqiy a‘zosi etib saylandi. Uning ish faolyatini ham O‘rta Osiyo Davlat Universiteti (O‘zMU) va O‘zbekiston Fanlar Akademiyasida davom ettirdi.

Universitetimizda qo‘shni davlatlardan ham kelib ilmiy ishlar qilgan olimlardan biri Halil Ahmedovich Rahmatullindir. U 1909-yilning 23-aprel sanasida Qirg‘iziston Respublikasining To‘qmoq shahrida tug‘ilgan.Toshkent Pedagogika Texnikumini bitirib 1928-yilda O‘rta Osiyo Davlat Universiteti (O‘zMU) ga o‘qishga kirgan. 2 yildan so‘ng o‘qishni Moskva Davlat Universitetida davom ettirgan. U 1937-yilda nomzodlik, va yillar o‘tib 1943-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Universitetimizni shunday buyuk va unutilmas tarixi bor ekan, kelajagi ham yuksak va porloq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mo‘tabar ziyo maskani kitobi;
2. Universitet mening hayotimda kitobi;
3. <https://www.wikipedia.org/>
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_universiteti